



## HALQALI CHUVALCHANGLAR (ANNELIDES) TIPI

Gulsanam Abdurasulova Utkirbek qizi

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti*

*Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi*

*101-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisdagi halqali chuvalchanglar tipi haqida umumiy tushuncha beriladi. Ularning tashqi tuzilishi, hayot tarzi, sistematikasi va xo'jalikdagi ahamiyati o'rganiladi.*

**Аннотация:** *Этот тезис дает общее представление о типе стригущего лишая. Изучено их внешнее строение систематика образа жизни и хозяйственное значение*

**Abstract:** *This thesis provides a general understanding of the ringworms. Their external structure, systematics of lifestyle and economic importance are studied.*

**Kalit so'zlar:** *halqalilar, bo'g'imlar, parapodiyalar, bo'ylama muskullar, kutikula, selom, bir qavat epiteliy*

Halqali chuvalchanglar tipiga 8000ming tur kirib dengizlarda, chuchuk suvlarda va tuproqda yashaydi. Ular tanasi birin-ketin joylashgan aniq halqalar bo'g'imlarga bo'lingan. Shuning uchun ham ularni halqali chuvalchanglar deb aytiladi. Ular tanasining har bir bo'g'imida bir juftdan parapodiyalar bo'ladi. Tuproq halqalilarda parapodiyalar o'rnida qillar saqlanib qolgan. Teri-muskul haltasi kutikula, bir qavat epiteliy, halqa va bo'ylama muskullar, ichki epiteliy- endoteliydan iborat. Tana bo'shlig'i selom deyiladi.

J.Urchinov tomonidan yozilgan "Zoologiya" nomli kitobida halqali chuvalchanglar tipi haqida quyidagi asosiy ma'lumotlar keltirilgan. Bu tip 9 mingtagacha turni o'z ichiga oladi. Ularning uzunligi millimetrdan to 3 metrgacha bo'ladi. Tanasi boshidan dumiga tomon segmentlarga ajralgan. Teri-muskul haltasi yaxshi rivojlangan. Halqali chuvalchanglarda ikkilamchi tana bo'shliq rivojlangan. Bularda yopiq qon aylanish sistemasi rivojlangan bo'lib, ularning yuragi yo'q. Bu tip chuvalchanglarning qoni rangsiz, yashil va qizil bo'ladi. Bularning nerv sistemasi bir juft bosh miya va qorin nerv zanjiridan iborat.

Bundan bir necha yil keyin O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X. Eshovalar yozgan "Umurtqasizlar zoologiyasi" nomli kitobda halqalilarga batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ularning gavdasi bosh, bo'g'imlarga bo'lingan tana va keyingi anal bo'limlardan iborat. Og'iz teshigi prostomiumning qorin tomonida joylashgan. Hazm qilish sistemasi yaxshi rivojlangan. Qon aylanish sistemasi odatda tutash, yaxshi rivojlangan. Markaziy nerv sistemasi bir juftdan bosh va halqumosti nerv gangliylari, halqum atrofi nerv halqasi va qorin nerv zanjiridan iborat. Ko'pchilik tuban tuzilgan halqalilar ayrim jinsli, metamorfoz orqali rivojlanadi, lichinkasi troxofora deyiladi.

Halqali chuvalchanglar tipi belbog'sizlar va belbog'lilar kenja tipiga bo'linadi. Belbog'sizlar tipiga ko'p tuklilar sinfi vakillari kiradi. Belbog'lilar tipi 2 ta sinfga bo'linadi. Ular kam tuklilar va zuluklar sinfi. Halqali chuvalchanglar tipining eng ko'p tarqalgan vakili yomg'ir chuvalchanggi hisoblanib u kam tuklilar sinfiga mansub. Yomg'ir chuvalchangi



tanasing uzunligi 8-10 sm, oldingi uchi konussimon o'tkirlashgan. Tanasi halqaga o'xshash tortmalar bilan ko'p sonli bo'g'imlarga bo'lingan. Yomg'ir chuvalchanggi xo'jalikda ham katta ahamiyatga ega. U tuproqqa havo kirishini ta'minlab, unumdor tuproq hosil qiladi.

Demak halqali chuvalchanglar boshqa umurtqasiz hayvonlarga qaraganda birmuncha ixtisoslashgan. Chunki ularda dastlabki yurak tushunchasi hamda yopiq qon aylanish sistemasi shakllana boshlagan. Xulosa qilib aytganda halqali chuvalchanglar yer yuzida keng tarqalgan va ularning ahamiyati katta.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova "Umurtqasizlar zoologiyasi" 2006-yil
2. J.Urchinov "Zoologiya" kitobi 1996-yil
3. O.Mavlonov "Zoologiya" 7-sinf uchun darslik 2017-yil